



THE SANITARY AND EPIDEMIOLOGICAL SITUATION IN THE FERGANA REGION DURING THE SECOND WORLD WAR (a case study of 1941–1945)

Shahzod Mashrapov

Basic Doctoral Student of Namangan State University

lutsifer0507@gmail.com

Namangan, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Fergana region, Second World War, healthcare system, sanitary and epidemiological situation, infectious diseases, typhus, malaria, archival documents.

Received: 22.02.26

Accepted: 23.02.26

Published: 24.02.26

Abstract: This article analyzes, on the basis of historical sources, the activities of the healthcare system, the sanitary and epidemiological situation, and the dynamics of the spread of infectious diseases in the Fergana region during the Second World War (1941–1945). A sharp increase in cases of typhus, malaria, typhoid fever, and other infectious diseases during the war years was identified. At the same time, it is substantiated that as a result of preventive, disinfection, and vaccination measures carried out by health authorities, positive outcomes were achieved in controlling certain diseases.

IKKINCHI JAHON URUSHI YILLARIDA FARG‘ONA VILOYATNING SANITARIYA-EPIDEMIOLOGIK HOLATI (1941–1945-yillar misolida)

Shahzod Mashrapov

Namangan Davlat universiteti tayanch doktoranti

lutsifer0507@gmail.com

Namangan, O‘zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so‘zlar: Farg‘ona viloyati, Ikkinchi jahon urushi, sog‘liqni saqlash tizimi, sanitariya-epidemiologik holat, yuqumli kasalliklar, toshmali terlama, bezgak, arxiv hujjatlari.

Annotatsiya: Mazkur maqolada Ikkinchi jahon urushi yillarida (1941-1945-yillar) Farg‘ona viloyatida sog‘liqni saqlash tizimining faoliyati, sanitariya-epidemiologik holati hamda yuqumli kasalliklarning tarqalish dinamikasi tarixiy manbalar asosida tahlil etilgan. Urush yillarida toshmali terlama,

bezgak, ich terlama va boshqa infeksiyon kasalliklarning keskin ko'paygani aniqlangan. Shu bilan birga, sog'liqni saqlash organlari tomonidan olib borilgan profilaktik, dezinfeksiya va emlash tadbirlari natijasida ayrim kasalliklar bo'yicha ijobiy natijalarga erishilgani asoslab berilgan.

САНИТАРНО-ЭПИДЕМИОЛОГИЧЕСКОЕ СОСТОЯНИЕ ФЕРГАНСКОЙ ОБЛАСТИ В ГОДЫ ВТОРОЙ МИРОВОЙ ВОЙНЫ (на примере 1941–1945 гг.)

Шахзод Маширапов

Базовый докторант

Наманганского государственного университета

lutsifer0507@gmail.com

Наманган, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Ферганская область, Вторая мировая война, система здравоохранения, санитарно-эпидемиологическое состояние, инфекционные заболевания, сыпной тиф, малярия, архивные документы.

Аннотация: В данной статье на основе исторических источников проанализированы деятельность системы здравоохранения, санитарно-эпидемиологическое состояние, а также динамика распространения инфекционных заболеваний в Ферганской области в годы Второй мировой войны (1941–1945 гг.). Установлено резкое увеличение случаев сыпного тифа, малярии, брюшного тифа и других инфекционных заболеваний в военный период. Вместе с тем обосновано, что в результате проведения профилактических, дезинфекционных мероприятий и вакцинации органами здравоохранения по ряду заболеваний были достигнуты положительные результаты.

Kirish. O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan so'ng, tarixiy jarayonlarni xolisona o'rganish, ayniqsa, ijtimoiy sohalar – sog'liqni saqlash, ta'lim, madaniyat kabi yo'nalishlarning shakllanish va rivojlanish bosqichlarini tahlil qilish alohida ahamiyat kasb eta boshladi. Sog'liqni saqlash tizimining hududiy shakllanishi va takomillashuvi esa, o'z navbatida, aholining turmush darajasini belgilovchi muhim omillardan biridir. O'zbekiston prezidenti Sh.M.Mirziyoev: "Mamlakatimizda inson huquqlari va qonuniy manfaatlarini ta'minlash, qadrgimmatini ulug'lashda sog'liqni saqlash tizimi ustuvor ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun ham

yurtimizda tinchlik va sog'liqni ta'minlashga erishsak, qolgan hamma narsaga erishamiz"[1] – deya ta'kidlagani bejiz emas. Shuningdek, Sog'liqni saqlash tizimi har bir davrda ijtimoiy taraqqiyotning ajralmas qismi sifatida qaralgan. Xususan, 1917-1991-yillarda Sovet Ittifoqi tarkibida O'zbekistonning barcha hududlarida, jumladan, Farg'ona viloyatida ham sog'liqni saqlash tizimini tashkil etish va takomillashtirish bo'yicha qator chora-tadbirlar ko'rilgan. 1941-1945-yillar oralig'i – bu borada alohida e'tibor bilan o'rganilishi lozim bo'lgan davrdir. Aynan shu urush yillarida Farg'ona viloyatining sanitariya-epidemiologik holati, epidemiyalarni tarqalishi va unga qarshi chora-tadbirlar ko'lamining mavjud og'ir vaziyatga qaramasdan kengayishini o'z ichiga olgan davr edi.

Maqolada O'zbekiston milliy arxivi, Ilmiy-texnikaviy va tibbiyot hujjatlari markaziy davlat arxivi, Namangan viloyat arxivi, Farg'ona viloyat davlat arxivi hamda boshqa adabiyotlar yordamida Ikkinchi jahon urushi yillarida Farg'ona viloyati sog'liqni saqlash tizimi faoliyati ma'lumotlarni manbaviy ahamiyatini ochib berishda yig'ilgan materiallar tarixiy, tahliliy, hujjatli va statistik tahlil usullari yordamida tahlil etilgan.

Asosiy qism. Ikkinchi jahon urushi yillarida, SSSRning urush xavf solgan hududlaridan ayrim aholi qatlamlarining ko'chib kelishi va mehnatkashlarning turmush sharoitlarining yomonlashishi natijasida, Farg'ona viloyatida hamda respublikaning boshqa ba'zi hududlarida kasalliklar, xususan, epidemik kasalliklar, keskin ko'paygan. 1941-yildan 1945-yil apreligacha bo'lgan davrda kasalliklar dinamikasini solishtirganda, quyidagi holat aniqlangan[2]:

Farg'ona viloyatining 1941-yildan 1945-yil apreligacha bo'lgan davrdagi kasalliklar dinamikasi

№	infeksiya nomi	1941-y.	1942-y.	1943-y.	1944-y.	1945-y.
1	Toshmali terlama	240	6286	3924	2295	1467
2	Qaytalanuvchi terlama	-	-	-	74	81
3	Ich terlama	586	2452	972	363	223
4	Dizenteriya	1825	5475	2390	1164	418
5	Qizilcha	458	384	202	32	56
6	Bo'g'ma	472	381	239	191	146
7	Bezgak	42036	96051	73218	51138	39131
8	Gripp	546	22588	22755	19342	14766
9	Qizamiq	2507	1510	164	75	643
10	Kana orqali yuqadigan qaytalanuvchi terlama	39	100	34	81	27

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, urushning barcha yillari davomida hukmron bo'lgan infeksiya – toshmali terlama hisoblangan. Bunga sabab sifatida, ilgari qayd etilgan omillardan tashqari, uy-

joy sharoitlarining nihoyatda og'irligi, xususan, yangi kelib qo'shilgan kontingentlar – evakuatsiya qilinganlar hamda maxsus ko'chirilgan aholi orasidagi ahvol ko'rsatilgan. 1944-yil avgust oyi holatiga ko'ra Farg'ona viloyatiga 5018 maxsus ko'chirilganlar oilasi joylashtirilgan[3]. Aytish joizki, kasallanish holatlarining mutanosib jihatdan eng katta qismi aynan ushbu guruhlar hissasiga to'g'ri kelgan. Shifokor V. Rahimovning "Qizil O'zbekiston" gazetasida "Tepkili terlama" sarlavha ostidagi maqolasida tepkili terlamani "Urush vaqtining terlamasi" deb atadi. Maqolada, "... bu kasallikning aynan urush vaqtida kuchayishi va bu davrda odamlar bir joydan ikkinchi joyga ko'chiriladi, tinch vaqtdagidan ko'ra zichroq yashashga to'g'ri keladi. Kishilar zich yashaganda, odatda shaxsiy gigiena va tozalik qoidalariga etarli e'tibor berilmaydi. Mana bu hol aholi orasida yuqumli kasalliklar, ayniqsa, tepkili terlama paydo bo'lishiga yo'l ochadi"[4] – deyilgan. Kasalliklarning kechishiga ta'sir ko'rsatgan omillar qatoriga urush bilan bog'liq holda aholini sovun bilan ta'minlashdagi uzilishlar, yoqilg'i ta'minotidagi qiyinchiliklar va boshqa shu kabi holatlar ham kirgan. Mehnatkashlarning maishiy sharoitlari yaxshilanib borishi natijasida 1944-yildayoq toshmali terlama bilan kasallanish darajasining keskin pasayishi kuzatilgan bo'lib, agar viloyatga maxsus ko'chirilgan aholi kelib joylashtirilmaganda, ushbu ko'rsatkich minimal darajagacha tushish extimoli bo'lgan. Keyinchalik aniqlanishicha, ularning sezilarli qismi toshmali terlamaning dastlabki klinik belgilari paydo bo'lish davrida bo'lgan. Tibbiy-sanitariya xodimlari tomonidan, shuningdek, favqulodda epidemiyaga qarshi "uchliklar"(mahalliy ijro hokimiyati vakili, tibbiyot xodimi va huquq-tartibot organi vakili) tomonidan Davlat Mudofaa Qo'mitasi vakili buyrug'iga muvofiq samarali epidemiyaga qarshi dezinfeksiya ishlari, izolyatorlar tashkil etish va boshqa chora-tadbirlar rejalari ishlab chiqilgan bo'lib, natijada mazkur infeksiya tarqalishining keskin kamayishiga erishilgan[5].

Ich terlama Farg'ona viloyati uchun hududiy doimiy kasallik hisoblangan. Agar kasallikning rivojlanishi bir necha yil davomida kuzatilsa, shuni ko'rish mumkinki, Ikkinchi jaxon urushining dastlabki ikki yilidan tashqari – mazkur davrda viloyatga asosan evakuatsiya qilingan, jismonan zaiflashgan aholining katta oqimi kirib kelgan holatlarda kasallik, odatda, yakka holatlar bilan cheklanib, epidemik tus kasb etmagan. Oshqozon-ichak kasalliklari, jumladan, ich terlama tarqalishining oldini olish chorasi sifatida shahar va tumanlarda sanitariyani tubdan sog'lomlashtirish bo'yicha turli tadbirlar amalga oshirilgan. Xususan, kasalliklarga qarshi kurashda aholi o'rtasida olib borilgan ommaviy tushuntirish va targ'ibot ishlari muhim ahamiyat kasb etgan. Faqat 1942-yilning birinchi choragida viloyat aholisining 200 ming nafari sanitariya targ'iboti bilan qamrab olinib, 3500 nafar sanitariya faollari tayyorlangan[6].

1942-yil 21-avgust kuni Sog'liqni saqlash xalq komissarligining "1942-1943-yillarning kuzgi-qishki davrida epidemiyalarga qarshi tadbirlar to'g'risida"gi qarori chiqib, unga ko'ra, viloyat va shahar ijroiya qo'mitalariga barcha hammomlar va dezinfeksiya qurilmalari egalarini ularning ta'mirini 1942-yil 15-sentyabrdan kechiktirmay yakunlashga majbur qilish, shuningdek, soddalashtirilgan turdagi zararkunanda hasharotlarni yo'q qilish uchun ishlatiladigan vositalar bilan jihozlangan hammomlar qurilishini zudlik bilan kengaytirish taklif etilgan. Bunda qishloq joylarida ularning soni oshirilishi lozim bo'lgan. Unga ko'ra, boshqa viloyatlar qatorida Farg'ona viloyatida ham 1001 ta dezinsektorli hammom qurilishi mo'ljallangan[7].

Ich terlama, dizenteriya va bo'g'maga qarshi emlash orqali aholi o'rtacha darajada vaktsinatsiya qilingan. Yuqorida ko'rsatilgan choralarning amalga oshirilishi natijasida dizenteriya bilan kasallanish darajasi ham bir necha yil davomida kamaygan. Chivin orqali yuqadigan qaytalanuvchi terlama Farg'ona viloyati, xususan, Farg'ona shahri uchun asosan yakka holda uchraydigan kasallik hisoblangan. Bemor qonida spiral shaklida bo'lgan bakteriyalar aniqlanganda, davolovchi shifokorlar ushbu kasallikni qaytalanuvchi terlamadan farqlamay davolashgan. Faqat 1944-yildan boshlab, epidemiologik ko'rsatmalar tufayli, chivin orqali yuqadigan qaytalanuvchi terlama holatlarini ajratib aniqlash imkoniyati paydo bo'lgan. Shu tariqa, jadvaldan ko'rinib turibdiki, bu kasallik bilan kasallanish holatlarining kamayishi hisobiga, 1944-yilda - 74 ta, 1945-yilda esa 81 ta deb qayd etilgan. Bolalar yuqumli kasalliklari orasida, ayniqsa, qizamiq, bo'g'ma va qizilcha e'tiborni tortadi. Qizamiqni hisobga olmaganda, boshqa kasallanishlar nisbatan kam uchragan. Bo'g'ma, rejalashtirilgan faol vaksina bilan emlash tadbirlari natijasida, barqaror ravishda kamayib borgan. Agar 1941-yilda kasallik holatlari 472 tani tashkil qilgan bo'lsa, 1945-yilda ular 146 taga etgan. Bolalar, odatda, viloyat shaharlari va zich aholi yashaydigan hududlarda yashasa-da, bolalar muassasalariga faqat bo'g'ma tashuvchiligiga oldindan tekshiruv o'tkazilgachgina qabul qilingan, natijada bolalar orasida kasallanish deyarli kuzatilmagan. Qizilcha (skarlatina) bilan kasallanish Farg'ona viloyatida eng katta cho'qqisini 1941-yilda ko'rsatgan bo'lib, shu yil 458 ta holat qayd etilgan. 1941-yildan boshlab bu kasallik holatlari keskin kamaygan. Kasallik barcha yillar davomida oson kechgan, jiddiy asoratlar kuzatilmagan va o'lim hollari past bo'lgan. 1941-yil oxiri va 1942-yil boshidagi qizamiqning eng yuqori darajasidan so'ng Farg'onadada bu kabi holatlar deyarli yakka holda uchragan. Natijada bolalar orasida immun qatlam yo'qolgan, shuning uchun 1945-yil oxirida tashqi hududlardan yuqtirib kelingan holatlarda vaktsinatsiyalanmagan bolalar ko'pligi sababli, infeksiya keng tarqalgan, bu kabi jarayon keyinchalik ham davom etgan. Shu davrda keng qamrovli profilaktik

choralar amalga oshirilgan va bolalar muassasalarida karantin guruhleri tashkil etilgan. Ushbu tadbirlar natijasida o'lim hollari deyarli kuzatilmagan[8].

Urush yillaridagi Farg'ona viloyat hokimiyati parazitar terlama, ich terlama, dizenteriya va bolalar yuqumli kasalliklari bilan bog'liq kasallanishlarni kamaytirishda sezilarli yutuqlarga erishgan bo'lsa, va albatta, ushbu yutuqlarda to'xtab qolmaslik, keyingi yillarda ularni to'liq yo'q qilishga intilishgan, Farg'onadagi bezgak (isitma) bilan bog'liq vaziyat hozirgacha juda murakkab va og'irligicha qolgan. Bu kasallik Farg'ona uchun hududiy doimiy kasallik hisoblangan va barcha yuqumli kasalliklar orasida hukmron o'rin tutgan, shu bilan birga xalq xo'jaligiga katta moddiy zarar etkazgan. Bundan tashqari, u katta miqdordagi odamlar uchun sezilarli azob-uqubatlar keltirib chiqargan va ko'pincha o'limi bilan tugagan. 1945-yilda mazkur kasallik tufayli 119 000 ish kuni yo'qotilgan. 1944-yilning avgust oyida O'zbekiston Komunistik Partiya Markaziy Komitetining maxsus brigadasi Farg'ona viloyatining 12 ta rayonida maxsus ko'chirilganlar hayoti, turmush tarzi bilan tanishgan. Brigada tomonidan kolxozga a'zo bo'lib kirgan maxsus ko'chirilgan oilalariga uy-joy qurishlari uchun tomorqa yerlar ajratgan. Tekshiruv davomida kolxozlarga a'zo bo'lgan maxsus ko'chirilganlarning ishga chiqmaslik holatlari kuzatilgan. Masalan, 8565 nafar mehnatga layoqatli kolxoz a'zolaridan faqat 6464 nafari ishga chiqqan. Ishga chiqmaslikning asosiy sababi maxsus ko'chirilganlar orasida bezgak kasalligining keng tarqalgani bo'lib, sog'liqni saqlash muassasalari bu kasallikning oldini olishga etarli e'tibor qaratmagan[9].

Respublikada paxtani etishtirishdan tortib tayyor mahsulot holiga keltirishgacha bo'lgan jarayonda ishlaydigan odamlar 3 qurultoyi ishtirokchilari Stalinning ularga yo'llagan maktubi orqali 1946-yilda kamida 1160000 tonna yuqori sifatli paxtani yig'ish majburiyatini olganlar. Shu sababli, 1946-yilda bezgakka qarshi kurash, gumanitar maqsadlardan tashqari, alohida ahamiyat kasb etgan. Farg'ona viloyatida 1945-yilda bu kasallik bo'yicha 39000 birlamchi murojaat qayd etilgan, bu esa 1940-yil ko'rsatkichidan deyarli uch baravar ko'p. Ushbu yuqori kasallanish darajasi, boshqa omillardan tashqari, sog'liqni saqlash organlarining, ayniqsa, er bo'limlari hamda suv xo'jaliklarning qoniqarsiz faoliyatining natijasi deb bilishgan. Ular tibbiy-sanitariya talablariga zid ravishda, kasallik tarqalishiga qarshi sharoit yaratish bilan bog'liq ishlar va uni oldini olish choralari etarlicha amalga oshirmaganlar. Isitma bilan og'rinishning xavfli holatini hisobga olib, Farg'ona sog'liqni saqlash bo'limi 1946-yil boshida bu xastalanishga qarshi aniq chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqqan va uni kundalik ravishda 100% amalga oshirishga intilgan. Rejada bu dardga chalingan bemorlarni aniqlash va ketma-ket davolash, qaytalanuvchi kasallanishning oldini olish va organizmni yoki aholini kasallikka qarshi oldindan himoya qilish maqsadida xinin dorisi bilan davolash yoki profilaktik ta'sir ko'rsatish., chivinlarning ko'payishini

oldini olish uchun botqoq va suv to‘planadigan joylarni quritish kabi ishlar majmui hamda turli chora-tadbirlar ko‘zda tutilgan. 1946-yilning birinchi choragida amalga oshirilgan ishlarning natijalari sezilarli bo‘lib, quyidagi raqamlar bilan ifodalanadi: agar 1943-yil birinchi choragida 11513 ta kasallanish holati qayd etilgan bo‘lsa, 1944-yil dastlabki uch oyida – 8 237 ta, 1945-yil boshida esa 7 160 ta holat qayd etilgan[10].

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, Ikkinchi jahon urushi yillarida Farg‘ona viloyatida sog‘liqni saqlash tizimi nihoyatda murakkab ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarda faoliyat yuritgan. Aholining majburiy ko‘chirilishi, uy-joy va gigiyena sharoitlarining yomonlashuvi yuqumli kasalliklar, ayniqsa toshmali terlama va bezgakning keng tarqalishiga sabab bo‘lgan. Shunga qaramay, sog‘liqni saqlash muassasalari, mahalliy hokimiyat va epidemiyaga qarshi maxsus tuzilmalar hamkorligida amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida bir qator infeksiyalar bo‘yicha kasallanish darajasi pasaytirilgan. Bezgak kasalligi esa viloyat uchun eng dolzarb muammo bo‘lib qolgan va urushdan keyingi yillarda ham jiddiy e‘tibor talab qilgan. Tadqiqot natijalari urush sharoitida sog‘liqni saqlash tizimining jamiyat hayotidagi muhim o‘rnini hamda tarixiy tajribani xolisona o‘rganish zarurligini ko‘rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Prezident Sh.M.Mirziyoyevning sog‘liqni saqlash sohasi xodimlarini qilgan tabrigidan // <https://xabar.uz/uz/jamiyat/prezident-sogliqni-saqlash>
2. Farg‘ona viloyat arxivi, 570-fond, 1-ro‘yhat, 23-yig‘majild, 9-10-varoqlar
3. Mahamadyunusov Sh. Иккинчи жаҳон уруши йилларида фарғона водийсига депортация қилинган халқларнинг ижтимоий аҳволи ва меҳнат фаолияти // Жамият ва инновациялар – Общество и инновации – Society and innovations. ISSN 2181-1415. <https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol3-iss2/S-pp72-78>, 2022. №2. – Б.74.
4. Akbarov R.M. Ikkinchi jahon urushi yillarida matbuotda siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy masalalarning yoritilishi (1941 – 1945-yillar, o‘zbek tilidagi gazetalar misolida). Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan dissertatsiya. – Namangan: 2024, –B. 139
5. Farg‘ona viloyat arxivi, 570-fond, 1-ro‘yhat, 23-yig‘majild, 10-varoq
6. Вавилов Ф.И. Ферганская область в Великой отечественной войне. Ташкент: ФАН, 1988, –С. 61
7. Namangan viloyat arxivi, 111-fond, 1-ro‘yhat, 54-yig‘majild, 85-varoq
8. Farg‘ona viloyat arxivi, 570-fond, 1-ro‘yhat, 50-yig‘majild, 18-19-varoqlar

9. Mahamadyunusov Sh. Иккинчи жаҳон уруши йилларида фарғона водийсига депортация қилинган халқларнинг ижтимоий аҳволи ва меҳнат фаолияти // Жамият ва инновациялар – Общество и инновации – Society and innovations. ISSN 2181-1415. <https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol3-iss2/S-pp72-78>, 2022. №2. –Б. 75.

10. Farg’ona viloyat arxivi, 570-fond, 1-ro’yhat, 50-yig’majild, 19-20-varoqlar